

2025-yil 14-noyabr

O'zbekistonning Minamata konvensiyasiga qo'shilish yo'lidagi amaliy qadamlar



Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi"ga muvofiq, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tomonidan O'zbekistonning Simob to'g'risidagi Minamata konvensiyasiga qo'shilish masalasi o'rganilmoqda.



Ushbu ishlar doirasida milliy so'rovnomani ishlab chiqilgan bo'lib, iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari kesimida ma'lumotlar to'plash, shuningdek, mamlakatning birinchi simob bo'yicha milliy inventarizatsiyasi va hisobotini tayyorlash jarayoni olib borilmoqda.



Joriy yilning 11-13-noyabr kunlari Minamata konvensiyasiga qo'shilish, simob tashlamalari va chiqindilarini kamaytirish hamda milliy inventarizatsiya guruhi mutaxassislarining BMT/UNITAR simob inventarizatsiyasi Toolkit dasturi bo'yicha amaliy ko'nikmalarini mustahkamlash maqsadida simob masalalari bo'yicha texnik seminar-trening o'tkazildi.

Trening FAO xalqaro maslahatchisi Jakob Maag va mahalliy mutaxassislar ishtirokida tashkil etildi. Unda taqdimotlar, amaliy mashg'ulotlar va muhokamalar o'tkazildi.

Muhokamalarda "O'z kimyosanoat" AJning Ekologiya va "yashil" iqtisodiyot bo'limi mutaxassislari ham faol ishtirok etib, mazkur so'rovnomani to'ldirishga ko'maklashdi va simob ifloslanishi xavfini kamaytirish hamda Minamata konvensiyasiga qo'shilish yo'lidagi O'zbekistonning sa'y-harakatlariga o'z hissasini qo'shdi.





source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zbekistonning-minamata-konvensiyasiga-qo-shilish-yo-lidagi>